MotoLyrics

MotoLyrics.com
Biggest, regularly updated and free lyrics database

# Shahrizoda
# "Daryo toshqin"

Visit "Daryo toshqin" on MotoLyrics.com

Daryo - toshqin, suvlar - to'lqin, o'tolmayman,
Otim - oriq, manzilimga yetolmayman.
Otginamni oriq qilgan shu mayda tosh,
Ranginamni sariq qilgan shu qalamqosh!
Oh, akajonim, quralay ko'zim!
Ranginamni sariq qilgan shu qalamqosh.

Daryolarning o'r yuzida o'ylaringiz,
Oqarishib ko'rinadi bo'ylaringiz,
Ipakmidi, baxmalmidi kiyganingiz,
Bizlardan ham ortiqmidi suyganingiz?
Oh, akajonim, quralay ko'zim,
Ranginamni sariq qilgan shu qalamqosh!

Daryolardan o'tar edim, o'tar edim,
Manzilimga yetar edim, yetar edim,
Men suysamu, ul suymasa,men netar edim,
Sho'rlik boshim olib, qayga men ketar edim?
Oh, akajonim, quralay ko'zim,
Ranginamni sariq qilgan shu qalamqosh!

Submitter's comments:Â

Ð   Ð°Ñ€Ð¾Ð´Ð½Ð°Ñ    Ð¿ÐµÑ   Ð½Ñ   .

Visit Shahrizoda page on MotoLyrics.com, to get more lyrics and videos.